

GERMENEVTIK TA'LIMOT ASOSIDA NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI METODIK RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna
TAFU Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ona tili ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak Ona tili o'qituvchilariga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Talabalarda ona tilini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari, germenevtik yondashuv, ona tilining ta'lim mazmunida tutgan o'rnini, Ona tilining har bir sathi doirasida talabalarga beriladigan BKMlar majmuasi, innovatsion pedagogik-metodik faoliyatining nazariy asoslariga oid nazariy bilimlarni oquv topshiriqlari ustida ishlash, talabalar bilan ona tili ta'lim mazmuni metodikasiga oid amaliyotini to'liq o'zlashtirishlariga erishish. Ona tili ta'lim mazmunida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir germenevtik ta'limot maqolada o'z aksini topgan.

Tayanch tushunchalar: Til, tafakkur, uzviylik.

Ona tili ta'limining ilmiy-metodik asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay oladi. Bo'lajak ona tili o'qituvchilarga modul-kredit tizimini keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik va metodik shart-sharoit talabalarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili o'qitish metodikasiga oid kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni metodik rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" alohida ta'kidlangan. Zero modul-kredit ta'limida mustaqil ta'lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Respublikamizda bo'lajak ona tili o'qituvchilari uchun Ona tili o'qitish metodikasi fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida fan bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, amaliy ishlar talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi. "Ona tili

o'qitish metodikasi" fani metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. Ona tili oqitish metodikasida o'rganishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) ko'nikmalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatib turibdi. Bu esa, o'qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, pedagogic-didaktik shart-sharoitlarini takomilashtirishni taqozo etadi. Ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirishda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning metodistlar oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish talabalar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tili ta'lim mazmunining o'rgatish natijasida talabalarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalaririvojlantiradi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida ona tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, talabani shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ona tili ta'lim mazmunida beriladigan bilimlar mazmunini ona tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliish usullari haqidagi (so'z yasaliishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); ona tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasaliishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ona tili ta'lim mazmunining fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi. Tilni o'rganish jarayonida talabalarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy boigan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni talabalarda germeneytik ta'limot asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi.

Ona tili ta'lim mazmunida hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy

jarayonda rivojlantiriladi. Beriladigan germevntik ta'limot asosidagi bilim talabalarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar fan dasturlari, sillabuslar va davlat ta'lim standartida qayd etilgan. Ona tili ta'lim mazmunini ongli egallashga 1-2 kurs biosqichlarida talabalarda grafik va imloviy malakalarni rivojlantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida talabalar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan germevntik ta'limot asosidagi bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Talabalar 1-bosqichdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'i)ni har xil saviyada o'rganadilar.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotimiz davomida G.K. Selevko pedagogik (didaktik) o'yinlarning quyidagi ayrim tasnifini taklif qiladi. (1.1-rasm). Quyida ularning ayrim e'tiborga molik jihatlariga diqqat qaratamiz.

PEDAGOGIK O'YINLAR KLASSIFIKATSIYASI					
Pedagogik o'yinlar	Faoliyat sohasida:				
	Jismoniy	Aqliy	Mehnat	Ijtimoiy	Psixologik
	Pedagogik jarayonning tabiatiga ko'ra				
	Ta'limiy, amaliy, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi	Kognitiv, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi	Funksional (reproduktiv) samarali, ijodiy	Kommunikativ, tahliliy, yo'naltiruvchi, psixotexnik	
	O'yin usuliga ko'ra:				
	Mavzulari	Syujetli	Rolli	Tadbirkorlik	Taqlid
	Fanlar sohasida:				
	Matematika, texnologiya, ona tili, tarbiya. STEM	Musiqi teatr, adabiy	Mehnat, texnik, ishlab chiqarish	Jismoniy madaniyat, sport, harbiy-amaliy, turizm, xalqchil,	Ijtimoiy fanlar b (menejment) iqtisodiy
	O'yin muhiti bo'yicha:				
	Mavzusiz	O'rinli, tashqi, joyli	ichki,	Kompyuterli, o'quv texnik qurollar bilan	Texnologik vositalari

1.1-rasm. Pedagogik o'yinlar klassifikatsiyasi

Sintaksisdan fan dasturiga nutq btrligi sifatida gap haqidagi, gapda

soʻzlarning bogʻlanishi, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar haqidagi bilimlar kiritilgan. Soʻzning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va soʻzda bir-biriga taʼsirini talabalar tushunadigan va soʻzlarni toʻgʻri yozishda foydalanishlari uchun zarur boʻlgan hajmda maʼlumot berilgan. Dasturda, "Leksika" boʻlimi alohida berilmagan, ammo talabalar soʻzlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik maʼnolari haqida soʻz turkumlari va soʻz tarkibini oʻrganish jarayonida maʼlumot oladilar. Talabalar ona tili taʼlim mazmunining hamma tomonlarini oʻzaro bogʻliq holda oʻrganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir bosqichda fonetika, leksika, grammatika va soʻz yasalihi haqida metodik bilimlar beriladi. Talabalarning bunday imkoniyatlari ona tili taʼlim mazmunining barcha tomonlarini bir-biriga oʻzaro taʼsir etadigan germenevtik taʼlimot asosida bir butun hodisa sifatida oʻrganishni taqozo etadi.

Ona tili taʼlim mazmunining oʻrganishga bunday germenevtik yondashish taʼlim jaryonini talabalar nutqini oʻstirish vazifasini hal etishga yoʻnaltirish imkonini beradi. "Grammatika, imlo va nutq oʻstirish" boʻlimi har bir guruhda quyidagicha qismlarni oʻz ichiga oladi: "Tovushlar va harflar", "Soʻz", "Gap", "Bogʻlanishli nutq". Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har toʻrt bosqichda grammatik oʻrganiladi. Har bir sinfda etakchi mavzular ajratiladi. Ona tili taʼlim mazmunini rivojlantirishda ona tili pedagoglari oldiga qoʻyilgan bu kabi talablarni amalga oshirish taʼlim mazmunini aniq belgilab olishni, oʻqitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Davlat taʼlim standaitida taʼkidlanganidek, qoraqlpoq tili taʼlimining har bir bosqichida pedagogik, metodik didaktik talablarning qoʻyilishi ona tili taʼlim mazmunini rivojlantirishda filologik taʼlim sohalari boʻyicha oʻzaro muvofiqlik, mutanosiblik, uygʻunlik toʻla taʼminlangan boʻlmogʻi kerak. Shu jihatdan filologik taʼlim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, ona tili taʼlim mazmunini rivojlantirishda taʼlim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qoʻllash imkonini beradi.

Bunga misol tariqasida quyidagi "Tushunchalar tahlili" oʻyin metodiga eʼtibor qaratamiz.

"Tushunchalar tahlili" oʻyin metodi.

Jadval 2

Sifatlari	Talabalarning germenevtik taʼlimga oid oʻquv topshiriqlarini rivojlantirish mezonlari tavsifi
mutaxassis	amal qilish darajasini belgilovchi shaxs

metodist	burchi mas'uliyatini to'g'ri anglash va o'z harakatini ularni bajarishga metodik yo'naltirilgan pedagog
Pedagogik burchi	U insonlarga jamiyatga, talabalariga o'ziga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladigan shaxs.
Germenev tik yondashuv	Germenevtika, tom ma'noda juda keng doirada qo'llaniluvchi sohalararo ta'limotdir.
Xurramov a M.A. nazariysi	Falsafa tarixi ensiklopediyasida "Germenevtika –keng ma'noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi ta'limot, tor ma'noda, ona tili ta'lim mazmunida matnlarni o'rganishda qo'llaniladigan metod va qoidalar to'plami", deb ta'kidlangan.
Germenev tik ta'limga oid fanlar	Germenevtika, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san'atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi.
Germenev tik kategoriyalar	 "Germenevtika" yunoncha "hermeneukos" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntiruvchi", "talqin etuvchi" ma'nosini bildiradi.

Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda ta'limning mazkur 1-4 bosqichiga qo'yilgan metodik, didaktik, pedagogik talablardan kelib chiqib belgilanadi. Talabalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini metodik rivojlantirish.

1.Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish.

2.Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda yozma nutq belgilarini taiaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasini metodik rivojlantirish

1. Fikrni yozma bayon etish bo'yicha belgilangan quyidagi ko'nikmalarni egallash:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- tavsifda ona tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy savodxonlikni egallashlariga erishish.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri belgilansagina, oldinga qo'yilgan metodik, didaktik va pedagogik talablar to'liq bajariladi. Ma'lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta'limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o'z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo'lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim. Xulosa qilib

aytish mumkinki, ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda metodist olimlarning ko'p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni metodik bajarish ko'p jihatdan ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda ta'lim mazmunni to'g'ri belgilashga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent, – “O‘zbekiston” NMIU, 2017, – 508 b.
2. Axmedova M.E. Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida o‘zbek tili ta’limda mustaqil o‘quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. *Ushubiy ko‘rsatma*, “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022
2. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (*tilshunoslik fanlari misolida*) Monografiya., Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022. 173 bet
1. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi// O‘zMU XABARLARI, 2022, 1/2/1, 95-97 betlar
3. Axmedova M.E. Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriylaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari// Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2 Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bulimi, 2022, 470-472 betlar
4. Axmedova M.E. OTM filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari 22.Akulova, A. A. konstruirovaniye situatsionnix zadach dlya otsenki kompetentnosti uchashixsya: uchebno-metodicheskoe posobie dlya pedagogov shkol. T.2008 g..153s.
5. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talkinining XV-XX asr manbalari. Dokt.dissertatsiyasi. - Toshkent: Akademiya, 1998. -250 b.;
7. Baxodir Karim Abdulla Qodiriy. -Toshkent: Fan, 2006. -246 b.;